

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**“TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL TA'LIM USLUBLARI VA
ZAMONAVIY AXBOROT – KOMMUKATSION
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH”**

(uslubiy ko'rsatma)



Namangan – 2016

Annotatsiya

Ushbu o'quv qo'llanmada talaba (o'quvchilar)ni o'qitish jarayonida treninglar, ochiq munozaralar, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-o'qituvchilarni pedagogik jarayonga tayyorlash masalalariga bag'ishlangan uslubiy tavsiya va maslahatlar berilgan. Uning mazmunida ta'limdagi innovatsion jarayonlar, oliy talim muassasasi professor-o'qituvchisining innovatsion kompetentligi, trenerlik faoliyati, mahorati va madaniyati hamda andragogik ta'lim tushunchalarining mohiyati yoritilgan.

Qo'llanmada keltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkaziladigan mashg'ulot jarayoni uslubiyatini har bir professor-o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fani va predmetining mazmuni, maqsadi, shuningdek, sharoiti, talaba (o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki o'qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanishi mumkin.

Mazkur qo'llanmadan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog) va xodimlar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

T u z u v c h i :

Mullaboyeva N - katta o'qituvchi

Mas'ul muharrir:

Mullaboyeva N - katta o'qituvchi

T a q r i z c h i :

Asharova O'. - pedagogika fanlari nomzodi, NamDU dotsenti

Kirish.

Ta'lim sifatini ta'minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini "Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi"¹ deb asoslaydi.

Shu bois, hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.


Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. **modern** – yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;
2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Darhaqiqat, ta'limga innovatsion (inglizcha innovation - yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini, fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning kechishi quyidagicha tasvirlanadi²:

¹ Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011.-B.15-16

² Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: "Moliya", 2006.



V.A. Slastenin pedagogik jarayonga innovatsion yondashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi³. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-Line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

³ Slastenin V.A. I dr. Pedagogika. – M.: “Akademiya”. 2002

Faqat bir eziglik bor – bu bilim va faqat bir yomonlik bor – bu jaholat.

Suqrot

O'zbekistonda ta'lim – tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi»dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan **«portlash effekti»** natijalari ro'yi-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

-ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi.;

- insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;

- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

- jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi

«Portlash effekti» sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish jarayonini yangi pedagogik «qurol» va vositalar bilan ta'minlash davr taqazosidir.

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab etadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgaralar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllan-tirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning echimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq?

Dastlab «texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z tenikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – san'at, hunar va «logos» (logos) – fan so'zlaridan tashkil topib «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)-ning faoliyatidir. Ana

shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda «texnologiya» atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: «o'qitish texnologiyasi», «o'quv jarayoni texnologiyasi», «ma'lumot texnologiyasi» va hokazo.

O'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va «o'qituvchi – moddiy muhit – o'quvchi (talaba)» funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayptilar. Shu boisdan bu tushunchalar-ni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan aniq maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlari tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo'limida qo'llash metodikasi va h.k.

PT o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hi-sobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Yohud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'in-disidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida PT o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelinadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan «o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligi e'tirof etiladi.

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat»deb tushuntiradi. SHuningdek, olimi zamonaviy o'qitish texnologiya-si haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini o'qtiradi: «O'qitish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini nima real tavsiflasa o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha» Bu alohida fan .

PTni fan sifatida e'tirof etish G.K.Selevko tomonidan ham ma'qullandi: «Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan

sifatida ham, ta'limda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va regulativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir». Olimning ta'kidlashicha «pedagogik texnologiya» tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

- 1) Umumpedagogik (umumdedaktik) daraja; umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ma'lum mintaqada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.
- 2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xususiy predmetli PT «xususiy metodika» ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).
- 3) Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o'zida o'quv-tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar echimini o'zida mujassamlashtiradi (alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, Yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa).

I.Ya.Lernerning fikricha, PT – «o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va Aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqazo etadi» .

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, PT belgilangan boshlang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaligi ko'zga yaqqol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P.Bespal'ko payqadi va o'zining yirik asarida «PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir» deb ta'rifladi .

Bu ta'rif mazmunidan muhim ilmiy printsiplarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalangani;
- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

PT tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada echilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, PTni amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelindi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko'tarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan «Dasturli ta'lim» (Programmirovanoe obuchenie) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi «SHatalovchilik harakat»ini eslash kifoya.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar etarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoqe, PTga «yangi» so'zni qo'shib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. Shunday ekan, «yangi PT» nimani anglatadi? Bu savolning echimini izohlashga harakat hilmiz.

Birinchidan, PT ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni echishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: «o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash» deb belgilanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning fivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishloq xo'jaligi, elektron, axborot va boshqa) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifatiy o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda «o'rganish»ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari romiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi PTni real voqelikka aylantiradi.

PT mohiyat jihatdan boshqa tenologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum «material» bilan ish ko'radi. Biroq PT inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

PT boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski, bu jarayon hozirgi ta'lim tizimida juda qiyin kechyapti, haqiqiy kompyuterli PT o'zining ilmiy ishlanmasini kutyapti: «komp'yuterlarning shu kundagi qo'llanishi-ekstensivlik xolos: an'anaviy o'quv

kurslari shunchaki ekran monitoriga joylashtirilyapti».SHu erda PT va axborot texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo'ladi. Keyingi vaqtlarda ba'zi bir olimlar (ayniqsa informatika fani vakillari) PTni axborotlashtirishga qo'shish yoki tenglashtirish (ba'zan ustun qo'yish)ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar agar xato bo'lmasa, shubhasiz «podadan oldin chang chiqarishdir». O'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy (ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab) voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy «burilish», uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi-komp'yuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya PTning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashtirilgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy bo'hronlar ortda qolib o'quv yurtlari dasturli «mashina» bilan etarli darajada ta'minlanadi. SHundagina axborotli texnologiya asosida o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funktsiyalarini to'liq bajarishi mumkin.

Ta'limni texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishi bilan belgilanishini e'tirof etgan holda PTning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni belgilashga harakat qilamiz:

- 1) ko'p bosqichli ta'lim tizimida PTning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- 2) zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya, ergonomiya kabi soha texnologiyalari bilan PTlarni muntazam ravishda yangilab bori shva tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;
- 3) istiqboli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or PTlarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarasini aniqlash;
- 4) tegishli boshqaruv organlari (Ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi PTlarni tatbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;
- 5) respublikamizdagi oliy (o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or pedagog va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish;
- 6) respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish uslublarini muntazam o'rganib bori shva ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;
- 7) o'qituvchi faoliyatini pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish muammolari va boshqalar. Xo'sh, belgilangan vazifalarni amalga oshirish va nazorat qilishni kim o'z zimmasiga olishi mumkin? ehtimol, ta'lim markazlarining vazifasidir? Yoki har qaysi ta'lim muassasalari o'z holicha echaveradimi? Biz bu savollar bilan ta'lim sohasidagi u yoki bu boshqaruv organlariga vazifa yuklash fikridan yiroqmiz. Ayni shu kunlarda vakolatli davlat organlarining kun tartibida ham PT muammolari turganligiga shubha yo'q.

Fikrimizcha, ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va hayotga tatbiq etish muammosi mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar qatori yangi korxonalar –

«Pedagogik texnologiya Davlat Markazi»ni tuzishni taqazo etadi. Agar shunday Markaz tashkil etilsa, birinchi navbatda «portlash effekti» sari yo'lni qisqartirishga hissa qo'shgan bo'lardi. Uchinchi ming yillikda ta'lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatar edi.

1.1. Pedagogik texnologiya kontseptsiyasining rivojlanish tarixi

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini fivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish vat adqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Sho'rolar tuzumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistik mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinir va rad etilar edi. Holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan xoli emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirishning iloji yo'q edi.

Bugun malakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustivor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi» .

Bu faslda biz pedagogik texnologiya nazariyasining vjudga kelishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaymiz.

30-yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQSHda «Pedagogik texnologiya» (Educational Technol-ogy), 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim» (Technology and programmed Learning). Yaponiyada esa 1965 yildan «Pedagogik texnologiya» (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xudi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National council for Educational

Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab «Pedagogik texnologiya jurnali» (Journal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQSHning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus «Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya»si (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan «Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar» (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumiyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mahur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferentsiyalar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro konferentsiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari «Pedagogik texnologiya jihatlari» (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

Shu kabi ma'lumotlarni keltirishni g'arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq 1 – chizma bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o'ziyiq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi. Tahlillarning ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muhokama qilinadi va rivojlantiriladi: birinchisi – o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnik vositalari), ikkinchisi – o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o'qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi.

Kompetentlik (lat. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me'yor hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'yektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'yektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning funktsional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs

xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.⁴

Shaxsiy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot- munosabatlariga faol kirisha olishi, konfliktlarni hal etishga taktik yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Metodik kompetentlik - o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

Kreativ kompetentlik (inglizcha “create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir.

Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Informatsion kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

Innovatsion kompetentlik – ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko'rinadi.

Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish o'qituvchining pedagogik jarayondagi pozitsiyasiga nisbatan **trener, tyutor, fasilitator, moderator** kabi yangi kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish zaruriyatini shakllantirmoqda.

Trener – amaliy o'qitish(mashq) asosida ta'lim oluvchilardagi ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi, guruh faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi pedagog-mutaxassis. Hozirgi vaqtda trenerlik bilan birga tyutorlik faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tyutor - (ing. tutor) bu trenerlik faoliyatidan farqli ravishda ta'lim oluvchilarning individual rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim dasturlari asosida o'qitishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

⁴ Zeer E.F., Shaxmatova N. Lichnostyu orientirovanno'e texnologii pofessionalnogo razvitiya spetsialista. – Ekaterinburg, 1999

Trenerlikka yo'nalغانlik - shaxsning faoliyat turiga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat'iy ishonchi, yoxud "pedagogik kasbga qiziqishi" va faoliyatning ushbu turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqi natijasida shakllanuvchi ko'nikmalardir.

Trenerlikka tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan pedagogik faoliyat sohasi bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalغانligi (ichki xohishning mavjudligi), kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik texnika va insonparvarligi yaxlit majmua ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Trener shaxsi va uning pedagogik mahoratiga quyiladigan talablar qo'yiladi:

- Shaxsiy-kasbiy sifatlarning shakllanganligi
- O'qitishni bilishi
- Tarbiyalashni bilishi
- Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini rag'batlantirishi, nazorat qila olishi va boshqarishi.

Trenerlik mahorati, Ichki xohishning mavjudligi, Pedagogik texnika, Kasbiy va sohaga oid bilimlar, Pedagogik qobiliyat, Shaxsga yo'nalغانlik.

Trener - o'qituvchining faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- Trening jarayonini loyihalashtirish, o'quv maqsadlari va natijalarini aniqlashtirish
- Trening o'tkazish uchun zaruriy o'quv-didaktik materiallar, texnik vositalarni tayyorlash, qulay shart-sharoitni yaratish
- Treningni o'tkazish, samarali ish shakllaridan foydalanish, jarayonni boshqarish, natijalarni baholash va xulosalash.

Trening davomida:

- O'zaro hamkorlik va muloqotni tashkil etish
- Qatnashchilarni qo'llab-quvatlash va ruhiy kuch - quvvat bag'ishlash
- Hamma g'oyalarni qabul qilish va o'rganib chiqish
- Har bir qatnashchi uchun qulay sharoitni yaratish
- Guruh bo'lib qaror qabul qilish, fikr bildirishga undash
- Hamisha ijodiy kayfiyatda bo'lish
- Guruh qabul qilgan qarorlarni taqqoslash va qabul qilingan qoidalarni tartibga solishga ko'maklashish
- Qo'yilgan maqsaddan chetga chiqib ketgan hollarda, topshiriqni qaytadan tushuntirish
- Guruhni aniq bir fikrga keltirish, aniq xulosa chiqarib, o'zaro muhokamaga erishish muhim omillardandir.

Trener-o'qituvchi barcha guruhlar ishining samaradorligiga javobgardir, u biron-bir guruhga yoki yakka shaxsga yon bosmasligi lozim. Shuningdek, har bir muhokama jarayonida muallaq holatda bo'lishi hamda o'zining fikrini o'tkazishga harakat qilmasligi lozim.

Shunday qilib, trener-o'qituvchi faoliyatining **asosiy mazmuni** – o'quv mashg'ulotlarida maqsadga erishish uchun berilgan aniq topshiriq atrofida guruh a'zolarining o'zaro hamkorligini tashkil qilishdan iborat.

Trener – o'qituvchi:

- Eshitish va tinglay olish
- Kuchli his-hayajonini boshqara olish
- Guruhni o'zaro kelishishga olib kelish
- Guruhni qo'yilgan maqsad sari olib borishi lozim

Bahs - munozarani olib borishda trener- o'qituvchi:

- mavzu muhokamasini tartibga keltirish
- noto'g'ri vaziyatlarni tushuntira olish
- muhokamada har bir ishtirokchining qatnashishiga imkon yaratish
- o'zaro hamkorlikni tashkil qilish
- bildirilgan turli fikrlarni umumlashtirish
- guruh a'zolarining o'zaro harakatlariga yordamlashishni bilishi kerak.

Muhokamani boshlash uchun:

- muammo va u nima uchun muhokama qilinayotganligini har bir qatnashchi aniq tushunishi shart
- tushuntirib berish uchun qulay sharoitni his qilish
- boshqalarga har tomonlama namuna bo'lishga harakat qilish
- muhokamada rag'batlantiruvchi savollardan foydalanish
- aytilgan fikrlar, g'oyalarni yozib borish
- hammani qatnashishini nazorat qilib turish
- hazil-mutoyibalardan foydalanish
- qatnashchilarning hissiy holatlarini oldindan seza bilishi lozim

Qatnashchilarni navbatdagi topshiriq bilan qanday tanishtiriladi? (amaliy tavsiya)

1. Mashqning maqsadini tushuntiring.
2. Kerakli sharoit yaratib olish uchun qatnashchilarni guruhlariga yoki juftliklarga (agar shunga ehtiyoj bo'lsa) ajratib chiqing va shunga yarasha mashqni bajarish uchun sharoit, imkoniyat yarating, hammani tayyor bo'lishini kuting.
3. Shart - sharoit va qoidani tushuntiring.
4. Topshiriqni bajarish bo'yicha faqat ko'rsatmalar beribgina qolmasdan, balki bundan keyin bajariladigan vazifalarni ham tushuntiring. Masalan, natijalar muhokama qilinadimi yoki guruh a'zolaridan biri guruh nomidan taqdimot qiladimi, shuni oldindan aytib o'tish joizdir.
5. Yozma tarqatma materiallar bo'lsa, ularni tarqating yoki unda nima yozilganligini o'qib bering. Agar og'zaki tushuntirilsa, hamma diqqat bilan **Sizni** tinglayotganini nazorat qilib turing.
6. Gapirishni boshlash yoki davom ettirishdan oldin hamma savollarga javob bering.
7. Agar zarur bo'lsa, so'ralgan narsani namoyish qiling.
8. Agar sizning bergan topshirig'ingiz hammaning qatnashishini talab qilsa, Siz o'zingiz birinchilardan bo'lib bunga tayyor bo'lishingiz lozim.
9. Topshiriq qanchalik to'g'ri bajarilayotganligini bilish uchun har bir tinglovchining oldiga kelib turing, bajarayotgan ishi bilan qiziqing.

Trener-o'qituvchilarga maslahatlar

Foydali maslahatlar (yondashuv):

- Treningga har bir qatnashchining biron foydali narsa qo'sha olishiga ishonch hosil qilish
- Har bir guruh o'z muammosini o'zi hal qila olishiga ishonch hosil qilish
- Hamma qatnashchilarning qiziqishi va talablarini hurmat qilish
- Eng muhimi - jarayon ekanligiga ishonch hosil qilish

Zararli yondashuvlar:

- Kishilar va ularning qarashlarini tanqid qilish
- Guruh bilan kelishmasdan turib xulosa chiqarish
- Guruh xohishiga qarshi ularni biron ishni bajarishga majbur qilish
- Trenerning o'zini ko'p gapirishi
- Guruhni o'zini xulosa chiqarishiga undash

Savollarga javoblar:

- ▶ qisqa va aniq bo'lishi kerak;
- ▶ ikkilanmasdan o'ylash uchun vaqt so'rang;
- ▶ savolga ko'nikish va vaqtdan yutish uchun savolni boshqacha shakllantiring;
- ▶ guruxda berilgan savollar bo'yicha, ularga o'z fikrlarini bildirishni taklif qiling;
- ▶ savollarga javobni bilmasligingizni tan olishdan qo'rqmang;
- ▶ sizni javobingiz to'g'ri qabul qilinganligiga hamisha ishonch hosil qiling;
- ▶ qo'shimcha ma'lumot olish uchun yo'naltiruvchi savollarni tuzish qobiliyati:
- ▶ savolni bittadan bering;
- ▶ savollar qisqa va aniq bo'lsin;
- ▶ ochiq savollar bering (ya'ni, tushuntirishlar bilan to'liq javoblar talab qiladigan);
- ▶ mazmunini chuqur o'rganing;
- ▶ javobga vaqt bering;
- ▶ suhbatdoshingiz o'ylab ko'rishi va sizga ko'proq ma'lumot berishi uchun xotirjamlik bilan sukut saqlang.

Faol eshitish qobiliyati:

- qulay sharoit va ijodiy muhit yarating;
- imo-ishora, pantomima, tana "tili" yordamida o'z diqqatingizni ta'kidlang;
- ko'rish aloqalaridan kerakli darajada foydalaning;
- fikringizni bir oz o'zgartirib ifoda qiling;
- asosiy g'oya bo'yicha o'z mulohazalaringizni bildiring;
- izohlovchi savollar bering;
- asosiy hissiyotlar bo'yicha o'z mulohazalaringizni bildiring;
- qisqacha qilib asosiy g'oyani tushuntiring.

Guruh bilan ishlash va ularga rahbarlik qilish:

1. Treningga tayyorgarlik:

- qatnashchilar muvoffaqiyatli ishlashi uchun yetarli tayanch ma'lumotlarga ega yoki ega emasligini sinash;
- qaysidir faoliyat turini kiritishdan oldin, barcha kerakli mazmun va zaruriy ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish;
- bahs uchun javoblari faqat «ha» yoki «yo'q» dan iborat bo'lmaydigan etib savollar tuzish masalalari kiradi.

2. Guruhda ishlashda trener-o'qituvchi:

- qatnashchilarga tushunarli bo'lgan tushunchalardan foydalanish;
- qatnashchilarni diqqat markaziga qo'yish va materialni tushunishni yengillashtirish;
- qatnashchilarni guruhda va o'zaro ishlashda ta'sirlarini rivojlantirish;
- qatnashchilar taqdimotlarida va mashqlarni bajarishida auditoriya bo'ylab yurish kerak.

3. Kichik guruhlarda ishlashda rahbarlik:

- uch nafar yoki besh nafar qatnashchilardan oshmaydigan kichik guruhlar tuzish;
- guruhning har bir qatnashchisiga vazifa berish (yoki hammani qatnashishiga sharoit yaratish);
- topshiriqni aniq tushuntirish va tushunganligini tekshirish, yordam berishga hamisha tayyor bo'lish, lekin qatnashchilar o'z ishlarini mustaqil bajarishiga erishish;
- interfaol metodni amalga oshirish uchun stol va stullarni surish mumkinligiga ishonch qosil qilish, qatnashchilar bir-birini «yelkama-yelka», «ko'zma-ko'z» ko'rishiga ishonch hosil qilishdan iborat.

4. Qatnashchilarga savollar berish tartibi:

- qatnashchilarning aniq hayotiy va pedagogik tajribasiga mos mavzulardan berish;
- savol bera turib, so'rovning turli bosqichlaridan foydalanish. masalan, qatnashchilar nima deydi? nega ushbu usul yoki uslubdan foydalaniladi?
- qatnashchilardan «nimalarni o'ylaysiz?» deb so'rash; savol bera turib, qatnashchilarga javob uchun vaqt ajratish («kutish vaqti»);
- qatnashchilarni o'z fikrlarini ifodalashga, uni tushuntirishga va asoslashga undashdan iboratdir.

5. Qatnashchilarning xatolarini tuzatish uchun:

- tanqiddan qochish;
- tuzatishdan oldin ijobiy fikrlardan aytish;
- ularga juda ham faol e'tibor bermaslik;
- biror tinglovchining xatosi bilinmasligi uchun birvarakayiga bir necha noto'g'ri javoblarni tahlil qilish lozim.

Trening dasturi

Maqsadi: Ta'limni innovatsion texnologiyalashtirish asoslari va innovatsion pedagogik ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish qoidalarini o'rgatish.

Trening natijasi:

1. Tasavvurni shakllantirish:

- O'quv fani bo'yicha PTni loyihalashtirish va rejalashtirish;
- O'quv fani bo'yicha talabaning O'UMni ishlab chiqishi;

2. Quyidagi zamonaviy pedagogic texnologiyalarni loyihalashtirish, rejalashtirish, amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

- Ma'ruzalarda interaktiv ta'lim texnologiyalari;
- Seminar va amaliy mashg'ulotlarda interaktiv ta'lim texnologiyalari;
- Ta'limning keys – texnologiyasi;
- Loyihaviy ta'lim texnologiyasi;

3. Quyidagilar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish:

- Maqsadni belgilashni va uch darajali testlarni ishlab chiqish;

▪ Ta'limni optimal usul, shakl va vositalarini tanlash, ulardan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida samarali foydalanish;

▪ Grafik organayzerlarni, o'quv vazifalarini va slayd taqdimotlarini ishlab chiqish;

Maqsadni belgilash, test va test topshiriqlarini ishlab chiqish, bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasi	Ularga erishishning maqsad va natijalarini shakllantirilishi. O'quv faoliyatini baholash mezonlari	Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakatlarining tavsifi
I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanish)	Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish. Natijalar: <ul style="list-style-type: none"> • Ma'lum, tanish narsani o'zgarishsiz, umumiy taxminlarni tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi; • O'z so'zlarida qaytarib beradi; • Tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi; • So'zma-soz yozadi. <i>Baholash mezonlari:</i> axborotni xatosiz qayta tiklaydi.	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlari bo'kyicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manbai bo'ladi. Ta'lim oluvchilar: axborot – reseptiv (qabul qiluvchi) faoliyatini amalga oshiradi; eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini eslab qoladi va xatosiz qayta tiklaydi.
II. Tartiblikka oid algoritm namuna oxshashlik boyicha harakatlanish Тарт иблиликка оид (алгоритм) (намуна, о'xshashlik bo'yicha harakatlanish)	Ta'lim maqsadi:tog'risida bilimlarni shakllantirish nazariy bilimni oxshashlik boyicha qollash xarakterlarni tartib boyicha bajarish malakalarini shakllantirish (rivojlantirish, mustahkamlash) Natijalar: <ul style="list-style-type: none"> • asosiy fikrni ajratadi; • baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; • tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi; • mustaqil vazifalarni yechadi; • tanish sharoitlarda tayyor ketma-ketlik bo'yicha harakatlarni bajaradi; o'lchashlarni o'tkazadi, tekshiradi, (tizimlarni, jihoz va boshqalarni) tashhis qiladi; yechadi, yig'adi; texnik topshiriq, chizmalarni o'qiydi; ishlab chiqarish ishlarini bajaradi, (jihozlarni) ishlatadi va boshqalar; • referat tayyorlaydi, grafik, sxema va jadvallarni o'qiydi. <i>Baholash mezonlari:</i> o'quv faoliyati yo'llarini biladi, bor bilimlarini o'zgartiradi va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o'xshashlik bo'yicha bajaradi,	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi. Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatini amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi: o'xshash holatda harakatlarni asos bilan namunali o'rganganlik-lari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.
III. Ijodiy	Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil	Ta'lim beruvchi: ta'lim

<p>fikrlovchilikka oid (evristik) harakatlarni tanlash</p>	<p>etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi; • kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi; • yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi, sinaydi; • bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi; • jihozlarni ishlatish bo'yicha tayyorlov qo'llanmasini o'qiydi va sharhlaydi, tushuntirish olib boradi. Chizma va jadvallarni; (kompyuter va boshqalar) tizimdagi to'liqsiz tashkil etuvchilarni to'ldiradi va almashtiradi; • nosozliklarni mantiqan izlanishini o'tkazadi, kerak bo'lsa ta'mirlaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya'ni modifikasiyalaydi (turlanishi, ko'rinishi, shakllanishi, o'zgarishi). <p><i>Baholash mezon:</i> yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi</p>	<p>oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi.</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> ijodiy fikrlovchilik turdagi natijaviy ijodiy faoliyatini amalga oshiradi; tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi.</p>
<p>IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)</p>	<p>Ta'lim maqsadi: muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish)</p> <p>Natijalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi; • tadqiqot ob'yekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi. <p><i>Baholash mezon:</i> tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondashish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi</p>	<p><i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilarga maslahat beradi.</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> tadqiqotchilik turdagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi.</p>

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvoffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish (V. Bespalko bo'yicha)

Test maqsadi	Test toifasi va turlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
Talabalar avval o'rgangan materialni tanishini tekshirish (o'zlashtirishning I darajasi)	Tanib olishlikka oid topshiriq	Bir vaqtni o'zida (aytib berish uchun) <i>topshiriq va javobdan iborat bo'ladi</i>		... xisoblanadimi?
	Ajratib olishlikka oid topshiriq	<i>Savol hamda tanlash uchun javob variantlaridan iborat bo'ladi</i>	1. 2. 3. 4.	...shulardan qaysi biri...to'g'riligini ko'rsating
	Tasniflashlikka oid topshiriq	Mos qisimlarni taqqoslash topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(g) 2-(b) 3-(a) 4-(v)	Mosliklarni ko'rsating (ularning tushunchasi va belgilanishi)
Tashqi aytib berishlarsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirganlart ashqi aytib berishlarsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va shular asosida namunaviy topshiriqlar yechish ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning II darajasi)	Qo'shimchalar qo'yiladigan testlar	Xohlagan shklida: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab etiladi.	Yo'q	... (formulani) to'ldiring, (yetishmayotgan elementni)... ko'rsating
	Tuzilishlik (konstruktorlik)ka oid testlar	Esda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta takror tiklashni talab etadi.	Yo'q	Bu "(tushuncha/ ifodalash ko'rsatiladi) nima?"... chizma chizing ... uchun formulani yozing
	Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalarni qayta tiklash va uni izlanayotgan natija uchun qo'llash talab etiladi.	1. 2. 3. 4.	Namunaviy topshiriqlar
Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning III darajasi)	Nooddiy topshiriqlar	Namunaviy tartib ostidagi topshiriqlarni oxiriga yetkazishda qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish uchun, dastlabki sharoitlarni o'zgartirish talab etadi.	1. 2. 3. 4.	Nooddiy topshiriqlar

LOYIHA TURI VA UNING ASOSIY BELGILARI

Loyihaning asosiy belgilari	Loyiha turi
<i>Fan jihatidan mazmunli soha</i>	
Bir fan doirasida, ba'zan boshqa fandan bilimlarni jalb etish orqali	Yagona loyiha
Bir necha bilimlar sohasiga taalluqli bo'lgan	Fanlararo
<i>Loyiha miqyosi</i>	
Loyihaning hajmi	Kichik, o'rta, yirik
Ishtirokchilar soni	Yakka, guruh bo'lib
<i>Amalga oshirish davrining izchilligi</i>	
1-2 hafta davomida ishlab chiqiladi	Qisqa muddatli
Bir oy davomida ishlab chiqiladi	O'rta muddatli
Bir oydan ko'proq vaqtda ishlab chiqiladi	Uzoq muddatli
<i>O'quv rejasiga kiritilganligi</i>	
Loyiha ustida aydoriyadan tashqari mustaqil ishlash fanni o'rganish yakunida, uning natijalari taqdimoti va baholanishi – yakuniy seminar/amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida rejalashtiriladi. Yakuniy nazorat doirasida baholanishi mumkin.	Yakuniy
O'quv kursidan ta'lim berish mazmunining bir qismi auditoriyadan tashqari loyihaviy mustaqil ishga ajratiladi (dars mavzusi, bo'lim). Natijalar mazkur o'qish davriga rejalashtirilgan seminar/amaliy/laboratoriya mashg'ulotlarida taqdim etiladi.	Oraliq
Auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyat doirasida hajmi bo'yicha katta o'quv bo'limi yoki butun kurs davomida bajarish rejalashtiriladi. Oraliq natijalar seminar/amaliy/laboratoriya mashg'ulotlarida taqdim etiladi va baholanadi.	Ochiq (bevosita)

LOYIHAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYASIGA PEDAGOGIK ANNOTATSIYANING TUZILISHI

- O'quv predmeti
- O'quv mavzusi
- Qatnashchilar
- Ta'limning maqsadi
- Rejalashtiriladigan o'quv natijalari
- Talabalar loyihani muvoffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati.
- Loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi.
- Loyihani bajarish tartibi
- Loyihaning baholanishi
- Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari
- Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi.

LOYIHALI O'QITISHNING UNIVERSAL TEXNOLOGIK KARTASI

Ta'lim shakli, Ish bosqichi	Faoliyat	
	O'qituvchiniki	talabalarniki
<i>Auditoriya ishi: tayyorgarlik bosqichi</i>		
1.O'quv mashg'ulo tiga kirish	Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning prognoz qilinadigan o'quv yutuqlari ro'yxatini ma'lum qiladi; o'quv mashg'ulotidagi ish tartibi va xususiyatlari, o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	
2. Asosiy bosqich	Loyiha faoliyati mazmuni va uning bo'lg'usi mutaxassisning asosiy vakolatlarini shakllantirishga ta'siri bilan tanishtiradi. Talabalarning loyiha mavzusi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtiradi: blits-so'rovnoma o'tkazadi yoki savol-javobli shaklni qo'llaydi. Mavzularni taklif qiladi, loyihalar mazmuni haqida hikoya qiladi, ular doiralarni ifodalaydi, ishlar turlarini aytadi, ularning natijalarini ma'lum qiladi. Guruhlarga birlashish va loyiha mavzusini tanlashni taklif qiladi.	Guruhlarga birlashishadi. Mavzuni tanlash haqida umumiy qarorni muhokama etishadi va qabul qilishadi.
	Evristik suhbat orqali muammoni o'rtaga qo'yadi: muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarni ziddiyatlarni aniqlash hamda ularni hal qilish zarurligini bilishga, muammoni va loyiha mavzusini ifodalashga undaydigan savollar qo'yadi. Talabalarning loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashi bo'yicha munozara yoki fikriy hujum uyushtiradi. Uning kutiladigan natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini ifodalaydi.	Savollarga javob berishadi; ziddiyatni aniqlashadi, ularni hal qilish zarurligini bilishadi; muammoni va loyiha mavzusini ifodalashadi. Loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashadi.
	(talabalarga maqsadni ifodalashni taklif etadi)	Loyiha natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini belgilashadi.
	Loyiha topshirig'ini qo'yadi. Talabalarni u bilan tanishishi va tushunishini uyushtiradi. Axborot manbaalari, uni yig'ish va tahlil etish usullarini tavsiya qiladi. Loyiha faoliyati natijalari va umuman jarayonni baholash rusumlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Loyiha topshirig'I bilan tanishadilar. Savollar berishadi.

	<p>Talabalarning loyiha ustida ishlash shaklini tanlashini tashkil etadi. Loyiha guruhlarini shakllantirishini uyushtiradi.</p>	<p>Loyiha ustida ishlash shaklini tanlashadi. Guruhlarga birlashishadi.</p>
	<p>Guruh ishi uchun topshiriq beradi, guruhda ishlash qoidalarini eslatadi: - loyihadagi vazifalar va faoliyat turlarini ajratish, ularni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash (guruhli loyihada); - loyiha faoliyati algoritmini ishlab chiqish; - loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari, vositalarini tanlash; - ishchi rejasini tuzish.</p>	<p>Loyiha faoliyatini loyihalashtirish va rejalashtirish bo'yicha guruhlardagi ishni tashkil etishadi; loyihani bajarish yo'nalishlari va bosqichlarini belgilashadi, guruh a'zolari o'rtasidagi funksiyalarni taqsimlashadi, hamkorlik shakllarini belgilashadi, loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari hamda vositalarini tanlashadi. Loyiha ishlarining ishchi rejasi, vazifalari, ularni bajarilish muddatlari hamda tayyor mahsulot turini va mas'ullarni ko'rsatib tuzishadi.</p>
3. Yakunlovchi – baholash bosqichi	<p>Loyiha topshirig'I ustidagi ishning asosiy natijalarini belgilash va loyiha faoliyatini rejalashtirish bo'yicha xulosa chiqaradi. Talabalar e'tiborini loyiha ishlari mazmuniga va loyihaning ijro bosqichida ularni bajarish grafigiga qaratadi. Savollarga javob beradi.</p>	Savollar berishadi
<i>Auditoriyadan tashqari ish: ijro bosqichi</i>		
<p>1.Loyihaning bajarilishi 2. Natijalarning ifodalanishi 3.Hisobot tuzilishi 4.Taqdimot tayyorlanishi</p>	<p>Maslahat beradi, guruhlar ishini muvofiqlashtiradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi, axborot manbaalarini izlashda yordam beradi, o'zi axborot manbai bo'ladi, loyiha ishlari monitoringi va nazoratini amalga oshiradi.</p>	<p>Individual vazifalarga binoan ishlarni bajarishadi. Faol va mustaqil ishlashadi, harkim o'z vazifasiga muvofiq va birgalikda: - turli manbalardan axborot yig'ishadi, tahlil etishadi va umumlashtirishadi; - tadqiqotlar o'tkazishadi, hisob-kitoblarni bajarishadi; - zaruratga qarab maslahatlashishadi; - oraliq natijalarni muhokama qilishadi; Hamma olingan natijalarning umumiy yig'ilishi va muhokamasini o'tkazishadi. Loyiha mahsulotini ifodalashadi. Hisobot tuzishadi. Loyihadagi yutuqlarning o'zini-o'zi baholash anketalarini to'ldirishadi. Loyiha ishi natijalari taqdimotini rasmiylashtiradi.</p>
<i>Auditoriya ishi:yakunlovchi bosqich</i>		

1.O'quv mashg'ulotiga kirish	Loyihalar taqdimotiga ko'rsatma beradi: guruhlarning bajarilgan loyihalarni taqdim etish reglamenti va izchilligini belgilaydi. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini eslatadi. O'zaro baholash jadvallarini tarqatadi.	
2.Asosiy bosqich	<p>Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruh taqdimoti yakunlari bo'yicha:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mazmuni bo'yicha aniqlovchi savollar va har bir qatnashchining roli haqida aniq maqsadga qaratilgan savollar beradi; - guruhdoshlar savollariga javoblar vaqtida quvvatlaydi va rag'batlantiradi 	Guruhlar o'z ishi natijalari haqida ma'ruza qiladi va ularni belgilangan shaklda taqdim etadi. Savollarga javob berishadi.
	Guruhlarning loyiha taqdimoti muhokamasi va o'zaro baholashini uyushtiradi.	Jamoalar bo'lib muhokama qilish orqali: taqdimot, olingan mahsulot, loyiha faoliyati natijalarini baholashadi.
	Talabalar bilan birga loyiha ustidagi ish jarayoni va yakunlarini muhokama qiladi, notiqnlarni rag'batlantiradi, o'z mulohazalarini nazokat bilan bildiradi, agar zarur bo'lsa, ayrim talabalarning yutuqlari va xatolari haqida o'z fikrini individual bildiradi.	
3. Yakunlovchi baholash bosqichi	<p>Loyiha faoliyatining asosiy natijalarini aniqlash bo'yicha xulosa chiqaradi.</p> <p>Bajarilgan ishni bo'lg'usi professional faoliyat uchun muhimligiga e'tiborni qaratadi.</p> <p>Guruhlar faoliyati, loyiha topshirig'I ustidagi individual ish natijalariga baho beradi. O'zaro baholashga yakun yasaydi.</p> <p>Loyiha va loyihalari ta'lim maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi.</p> <p>Саволларга жавоб бесавollarga javob beradi.</p>	Natijalar, jarayon, o'zining undagi ishtirokini boshqalar baholarini hisobga olib o'zi baholaydi.

O'QUV LOYIHA
“TOSHKENT – SHARQ YULDUZI”
LOYIHA TOPSHIRIG'I

Kirish. Jahon hamjamiyatida O'zbekistonga qiziqish o'sib bormoqda, bunga sayohatchilar sonini kundan-kunga oshib borishi o'z dalilini ko'rsatmoqda. YUNESKO o'zining tarkibiga kiruvchi davlatlarni O'zbekistonni poytaxti - Toshkentning 2200 yillicini nishonlashda ishtirok etishga chaqirdi. O'zining qadimiy tarixi va navqiron “Sharq yulduzi - Toshkent” bilan tanishishni xohlovchi ko'p sonli mehmonlar kelishi kutilmoqda. Biroq barcha aholi poytaxt to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar.

Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi, muammo: yashovchi aholi va mehmonlarni Toshkent to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): Toshkent to'g'risida ma'lumotni ishlab chiqish.

Yakuniy natija: Toshkent to'g'risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o'z ichiga oluvchi, ma'lumotnoma.

Foydalanuvchilar: Toshkent aholisi va mehmonlar.

Loyiha doirasi:

bajarish muddati: ...

ishtirokchilar soni: beshtagacha

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari va faoliyat turlari:

Axborotlarni yig'ish: quyidagi mavzular bo'yicha

Toshkent - O'zbekiston poytaxti

Toshkentning tarixiy o'tmishi

Toshkent: kecha, bugun, ertaga

Toshkent metropoliteni

Toshkent xududidagi arxitektura yodgorliklari

Toshkent muzeylari

Toshkent teatrlari.

Ma'lumotnomani rasmiylashtirish

Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida hisobot tayyorlash.

Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida vizual (og'zaki) taqdimotni tayyorlash.

II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO'YICHA TALABALARGA
USLUBIY KO'RSATMALAR

Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo'riqnoma

Guruh sardorini tanlang.

Diqqat bilan loyiha topshirig'i bilan tanishing.

Ma'lumotnoma tuzilishini aniqlang.

Ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalar va faoliyat turlarini taqsimlang.

Ish rejasini tuzing

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi (Lavha)

Ishtirokchilar F.I	Vazifa, faoliyat turi	Ish mazmuni	Tayyor mahsulot turi	Bajarish muddati

1. Axborot manbalarini aniqlang, axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring (Diqqat! Ushbu vazifani barcha guruh ishtirokchilari bajaradi).
2. Natijalarni ma'lumotnoma ko'rinishida materiallarni rasmiylashtiring (1-ta talaba).
3. Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha, hisobotni tayyorlang (2-ta talaba).
4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang (2-ta talaba).
5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

Tavsiya etiladigan "Toshkent – sharq yulduzi" mavzusidagi ma'lumotnoma tuzilishi

Titul varag'i

Annotatsiya

Kirish – ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.

Toshkent – O'zbekiston poytaxti

Toshkentning tarixiy o'tmishi

Toshkent metropoliteni

Toshkent xududidagi arxitektura yodgorliklari

Toshkent muzeylari

Toshkent teatrlari.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

Loyiha ishi to'g'risida hisobot tuzilishi

Titul varag'i

Loyihani dolzarbligi

Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi, muammo, loyiha maqsadi, yakuniy natija, foydalanuvchilar.

Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.

Bajaruvchilarni ko'rsatgan xolda ma'lumotnoma tuzilishini qisqa bayoni.

Loyiha sifatini, loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llarini baholash.

Vizual taqdimot tuzilishi

1. Loyiha mavzusi. Bajaruvchilar.
2. Loyihani dolzarbligi
3. Loyiha doirasida o'z yachimini topuvchi, muammo, loyiha maqsadi, yakuniy natija, foydalanuvchilar.
4. Loyihaning ish rajasini (jadval) bayon eting.
5. Loyiha ma'suli: ma'lumotnoma
6. titul varag'i
7. annotatsiya
8. mundarija
9. Loyiha sifatini, loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yangib o'tish yo'llarini baholash.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- Loyiha mahsuli – ma'lumotnoma (eng yuqori 10 ball);
- Hisobot (eng yuqori 5 ball);
- Loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball)

“Keys - stadi” (yoki “O'quv keyslari”) metodi

“Keys-stadi” (ing. “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o'quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir; ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha;

Ta'lim maqsadi	Keys-stadi	Ta'lim shakli	Ilmiy izlanish usul va vositalari	Ta'lim natijasi
		Ta'lim metodlari	Axborotlarni to'plash usul va vositalari	
		Ta'lim vositalari	Axborotlarni ilmiy tahlil qilish usul va vositalari	
		Ta'limni boshqarish usul va vositalari	Ta'limiy usul va vositalari	

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi bosqichlarda kechadi:

O'quv keyslari		
Yechimni yopish bo'yicha individual ishlash	Asosiy bosqichlar	Yechimni topishda jamoaviy hamkorlikka erishish
Samaradorlik		

Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi;

- Jamoa (guruh) a'zolari muammo, uning yechimlari yuzasidan o'zaro fikr almashadi;
- Masalaning yechimi sifatida taqdim etilgan variantlar muhokama qilinib, ularning maqbulligi baholanadi;
- Muammoli vaziyatning yechimini ta'minlaydigan aniq dastur ishlab chiqilgan;
- Masalaning yechimi to'g'risida ma'lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi va unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

Texnologiyani alohida o'quvchiga nisbatan qo'llash tartibi quyidagicha:

- o'quvchi (talaba)ning texnologiyaning mohiyati, uni qo'llash shartlari bilan tanishishi;
- o'quvchi (talaba) tomonidan taqdim etilgan muammoning o'rganilishi;
- muammo bo'yicha asosiy va 2-darajali masalalarni ajratish, shakllantirish, asoslash;
- taqdimot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish;
- taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o'rganish;
- berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlash;
- taqdim etilgan yechimni ta'lim amaliyotiga tadbiiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Ta'limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o'quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o'rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to'g'risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Texnologiya yordamida tanlangan muammoning yechimini topishga doir muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:

- keys mazmuni bilan shaxsan tanishish;
- kichik guruhlarda muhokama qilish;
- jamoa o'rtasida umumiy muhokamani tashkil qilish;

Muammoni muhokama qilishda e'tiborni quyidagilarga qaratishi zarur:

- o'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash;
- muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o'rganish;
- ehtimoli bo'lgan "to'siq"lar (2-darajali masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k)ni aniqlash
- auditoriya uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash;
- muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma'lumotni aniqlash;
- muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg'ab olish;
- muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash;

- muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish;
- muhokama tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash.

Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. daladagi 2. kabinetdagi
Syujet mavjudligi	1. syujetli 2. syujetsiz
Keys ob'yekti	1. shaxsiy 2. tashkiliy-institutsional 3. ko'p sub'yektli
Hajmi	1. qisqa (lo'nda) 2. o'rtacha miqdordagi 3. katta (uzun)
O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli	1. savolli 2. keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash 2. treningli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan 3. tahlil va baholashga o'rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi 5. vaziyat sub'yekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-keys 4. Audio-keys 5. Multimediya-keys

Keys texnologiyasida:

- “Aqliy hujum”
- “Basketmetod”
- “Vaziyatli rolli o’yin”
- “Bahs-munozara”
- “Klaster”
- “Irok xaritasi”
- “Modellashtirish” kabi interfaol metodlardan keng foydalanish mumkin.

Keysni yechish tartibi

Muammoli vaziyat turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Bu vaziyatda sizning harakatingiz....

KEYS-O’QITISH TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK ANNOTATSIYASI

Quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi:

1. Keys mo’ljallangan predmet, bo’lim, mavzu, ta’lim darajasi, kurs ko’rsatiladi.
2. Keysdan ko’zlangan maqsad (ta’limiy maqsad, rejalashtiriladigan o’quv natijalari).
3. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo’lgan dastlabki bilim va malakalar.
4. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.
5. Axborot olish manbalari ro’yxati
6. Keysning o’ziga xos belgilariga ko’ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'yekti mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o’ziga xos xususiyatlari, o’quv topshirig’ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).
7. Keysdan ko’zlangan maqsad va tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta’minoti o’zgarganida u qo’llanilishi mumkin bo’lgan o’quv predmetlari ro’yxati.

KEYS – O’QITISH TEXNOLOGIYASINING UNIVERSAL MODELI

<i>Mavzu</i>	
<i>Talabalar soni</i> : ... kishi.	<i>Vaqti</i> - ... soat.
<i>O’quv mashg’uloti shakli</i>	Bilimlarni kengaytiradigan va chuqurlashtiradigan, malakalar orttiradigan seminar
<i>Seminar rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. O’quv mashg’ulotiga kirish. 2. Bilimlarni dolzarblashtirish 3. kichik guruhlarda keys bilan ishlash 4. Natijalar taqdimoti. 5. Munozara, muammoli vaziyat yechimini baholash va ustuvor g’oyani tanlash. 6. Xulosa. Guruhlar va talabalar faoliyatini, o’quv mashg’uloti maqsadiga erishish darajasini baholash.
<i>O’quv mashg’uloti maqsadi:</i> ... haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, ... malakalarini orttirish, muammoli amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish malakalarini shakllantirish.	
<p><i>O’quv mashg’uloti natijalari:</i> ... ni tavsiflaydi, tasniflaydi, asoslaydi, taqqoslaydi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Keysda taqdim etilgan vaziyatni tahlil etadi; • Muammo, vazifalarini ajratadi va ifodalaydi, muammoli vaziyatni hal etish algoritmini ishlab chiqadi; • Vaziyatni tahlil etish asosida uni hal qilishga doir asosli qaror qabul qilinadi: • Hisob-kitoblar amalga oshiriladi; • Yakuniy xulosa chiqariladi, uni asosli tarzda himoya qiladi. 	<p><i>O’qituvchining vazifalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • ... mavzusi bo’yicha bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish; • Muammoli vaziyatni tahlil etish, muammo va kichik muammolarni ifodalash, vazifalar qo’yish va ularni hal etish bo’yicha harakatlar algoritmini ishlab chiqish, iqtisodiy asoslangan qarorni qabul qilish, ... ni prognoz qilish malakalarini hosil qilish; • Hisob-kitob yuritish malakasini orttirish; • Ishlab chiqilgan nuqtai-nazarni asoslash va himoya qilish malakalarini rivojlantirish; • Munozara madaniyatini kommunikativ malakalarni hosil qilish.
<i>Ta’lim usullari:</i>	Keys-stadi, aqliy hujum, munozara, amaliy uslub.
<i>Ta’lim vositalari:</i>	Keys, talabaga uslubiy ko’rsatmalar, flipchart
<i>Ta’lim shakllari:</i>	Individual, frontal, jamoa, guruhlarda ishlash
<i>Ta’lim shart-sharoitlari:</i>	Guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Qaytar aloqa, usul va vositalari</i>	Kuzatuv, blits-so’rov, taqdimot, o’zaro baholash

O'quv mashg'ulotining universal texnologik kartasi

Bosqichlar vaqt	Faoliyat	
	o'qituvchining	talabalarning
Tayyorgarlik bosqichi	Keys materiallarini tayyorlaydi va talabalar tanishishi va hal qilishi uchun ularga oldindan tarqatadi. Vaziyatni tahlil etish algoritmi (yo'riqnomasi) bilan tanishtiradi. Tahlilni mustaqil o'tkazish va uning natijalarini vaziyat tahlili varag'iga yozish vazifasini topshiradi	Keysni mustaqil hal etadi, vaziyat tahlili varag'ini to'ldiradi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ... min.	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, rejalashtiriladigan natijalarni e'lon qiladi. 1.2. Ushbu keys maqsadini va uning professionalashirishga ta'sirini tushuntiradi. 1.3. Seminarda ishlash tartibi, ko'rsatkichlar va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, aniqlovchi savollar beradilar
2-bosqich. Asosiy (... min.)	2.1. ... mavzusi (... – sonli ilova) bo'yicha talabalar bilimlarini dolzarblashtirish uchun blits-so'rovnoma o'tkazadi	Savollarga javob beradilar, muhokama qiladilar, aniqlovchi savollar beradilar
	2.2. Talabalarni guruhlariga bo'ladi. Guruhda ishlash qoidalari (... – sonli ilova), munozara qoidalari (... – sonli ilova) bilan tanishtiradi (eslatadi), munozara qatnashchisiga eslatmani (... – sonli ilova) tarqatadi. quyidagicha topshiriq beradi: keys bilan individual ishlash natijalarini muhokama qilish, vaziyatni jamoa bo'lib tahlil etish varag'ini to'ldirish, muammoli vaziyatning individual yechimi bo'yicha ustuvor g'oyalarni baholash va tanlash, taqdimotga tayyorlanish. 2.3. O'quv faoliyatini muvofiqlashtiradi, maslahat beradi, yo'naltiradi. Individual ish natijalarini tekshiradi va baholaydi: vaziyatni tahlil etish varaqlari	O'quv topshirig'ini bajaradi
	2.4. Taqdimotni, taqdimotlar muhokamasi va o'zaro baholanishini tashkil etadi. Javoblarni izohlaydi, o'zgartiradi, vaziyatni tahlil etish va hal qilish jarayonida berilgan xulosalarga alohida e'tibor qaratadi. 2.5. Keys yechimi bo'yicha o'z variantini ma'lum qiladi	Guruhlar ish natijalari taqdimotini o'tkazadilar. Munozarada qatnashadilar, savollar beradilar, baholaydilar

3-bosqich. Yakunlovchi baholovchi, ... min.	3.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi, o'quv faoliyati natijalarini umumlashtiradi, individual va birgalikdagi ishga baholarni e'lon qiladi. Olingan bilimlarning kelgusidagi kasbiy va o'quv faoliyati uchun ahamiyatini qayd etadi	Tinglaydilar, aniqlovchi savollar beradilar

KEYS “MA'NAVIY TAHDIDLAR VA ULARGA QARSHI G'OYAVIY KURASHISH”

Kirish. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash davlatning, biror bir ijtimoiy uyushmaning ishi bo'lmay, har birimizning vazifamizdir. Beparvolik va loqaydlik o'z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo'yishdan, xudbinlikdan, kelajak haqida qayg'urmaslikdan, o'ziga ham, o'zgalarga ham ishonmaslikdan, qo'rqqoqlikdan kelib chiqadi. Jamiyat kelajagini o'ylaydigan inson hech qachon tevarak-atrofidagi hodisalarga beparvo, loqayd bo'lmaydi. Zararli, yot jarayonlarni fosh qiladi, ularga qarshi fidoyilik bilan kurashadi. Shuning uchun I.Karimov bu masalani alohida ta'kidlaydi: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larlikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda xushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi».

Quyidagi keys - ma'naviy barkamol va komil insonning aqliy, axloqiy, ma'naviy fazilatlarini yuksak bo'lishi, kishilarning chuqur va zamonaviy bilim, keng dunyoqarashi, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi, uning yuksak ma'naviy kamolot sohibi bo'lishining asosiy shakli – yuksak ma'naviyatning muhim omili ekanligini ko'rsatib berishga, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar va ularning oldini olish yo'llarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Keysni yechish jarayonida ushbu vaziyatni taxlil qilib, muammoni oldini olish va uni hal qilish yo'llarini ishlab chiqishga harakat qiling.

(Trenerlar diqqatiga! Tinglovchilarga tushuntiring. Agar ular o'z faoliyatlarida savolli keyslardan foydalanib, uni jamoaviy muxokama qilsalar, unda keysni yechish bo'yicha topshiriq berilmaydi)

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun. Siz mavzu bo'yicha ma'naviy taraqqiyot mezonlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Beparvolik va loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, xushyorlik va jonkuyarlik

(Muammoli vaziyat)

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularning oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular g'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

“Menga nima” deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, o'zini, o'z manfaatini hammadan ustun qo'yish, xudbinlik, hamma narsalar mening xuzur-halovatinga xizmat qilishi kerak, deyish, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning belgilari.

Masalan, ikki nafar o'smir mahallamizda sigaret chekib turibdi. Ilgari buni ko'rib, “E. Nega chekadi-ya bu bolalar”, deb, tanbeh berardik. Bugun esa to'xtab, gapirishga irodamiz yetmaydi. Ichimizdagi xudbinlik “Nima qilaman kayfiyatimni buzib. qo'y, indama, menga nima, bolaga ota-ona tarbiya bersin”, - deb, beparvolik bilan o'tib ketamiz. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach mahallada sigaret chekib turgan bolalarning soni ko'paya boshladi. Vijdonimiz qiynalib, bolalarga tanbeh berishga yana harakat qildik. Hozirgi o'smirlar ham anoyi emas. Betga choparligi bor. “Nima ishingiz bor. Amakimmisiz, xolammisiz”, deydi. Biz esa, “menga nima”, – deb yo'limizni davom ettiramiz. Chunki ishlarimiz juda ko'p, qayergadir shoshilyapmiz. Bizning gaplarimiz o'spirin bolalarga yoqmaydi. Ma'lum bir vaqt o'tgach, o'spirin bolalar sekin-asta giyohvand modda istemol qila boshlashdi. Mahallada birin-ketin ayanchli fojealar ro'y bera boshladi. O'g'irlik, mushtlashishlar, zo'ravonlik, tartibsizlik... Qayerdan keldi bu illat? Kim aybdor? Qo'shni xonadonda istiqomat qilayotgan bola giyohvand moddani me'yordan ko'proq iste'mol qilganligi tufayli olamdan o'tdi. Oradan yana bir necha kundan so'ng yana falokat. qo'shni ayolning farzandi mushtlashib, og'ir jarohat olibdi. Endi mahalladoshlar insoniylik va odamgarchilik haqida qayg'urib, qo'shnilardan ko'ngil so'rashga kirishishibdi.

Bobolarimiz: “Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona” degan, shunga amal qilgan. Ko'rayapsizmi? Lekin nega biz bobolar udumiga amal qilmadik? Avlodlar haqida qayg'urmadik. Boshimizga obdan birin-ketin kulfatlar tushgandan keyingina odamiylik va insonparvarlik haqida o'ylay boshladik?

Odam qanday qilib egotsentrist bo'lib qoladi? Ota-onaning-pedagog dastidan. qanday qilib? Ota-ona o'zlari tuqqan bolasini yeru jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning markazi bo'lishni) o'rgatishadi. Bola nima qilsin? O'rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida:“Fa?at mening bolamga yaxshi bo'lishi kerak. Bolam baxtli bo'lishi kerak” degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar.

Bolasining istagan, hatto istamagan, so'ramagan narsalarni ham uyub tashlashadi. Mehnatni, birovga g'amxo'rlikni, boshqalar ham xuddi o'zi kabi odam ekanligi, ularning ham hurmati, manfaatlari borligini eslatmaydilar.

Bola bog'chasiga boradi. O'zidek bolalar bilan birinchi uchrashuv. Boshqalardan ota-onasinidek g'amxo'rlikni kutadi. Ko'rmagach talab qiladi. Birinchi uchrashuv – jamoa bilan birinchi to'qnashuvga aylandi. Yig'laydi.

Maktabda muomala, murosa, burchni bilmaydi. Mas'uliyatsiz. Jon kuydirmaydi. Ota-ona buni qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa maktabga ko'chiradi. “katta bo'lsa hammasi joyiga tushib ketadi”, - deb o'zlarini aldaydilar. U katta bo'ladi. Unga qo'shilib talablari, ishyoqmaslik, mas'uliyatsizlik, boshqalarga iddaolari, illatlari ham voyaga yetadi. Kuchga kiradi.

Ota-onaning belidan kuchi, cho'ntagidan baraka ketadi. Endi befoyda, keraksiz odamlarga aylanib qoladilar.

Xudbin yigit endi jamoaviylik, ko'pchilik bo'lib yashash tartib-qoidalariga, burchlariga to'qnashadi. Birinchi to'qnashuvdayoq yengiladi. “Men yaxshi – hamma yomon” degan qulay yolg'on qobig'iga uy qurib, yashay boshlaydi. Shunday qilib, ota-onaning, kishilarning loqaydligi jamiyatdan, hayotdan asossiz norozi egotsetristlarni paydo qiladi. Ma'naviy qarovsizlik, burchsizlik o'smirni giyohvandlarga, jinoyatchilarga, kim mo'may pul va'da qilsa, o'shalarga topshiradi.

Shu tariqa, egotsentrist-xudbinlar jabrini birinchi – ularning ota-onalari tortadi. Keyin bosh?alar. Chunki tushuntirib, odamlarga yaxshilik qilish kerak desangiz, “buning tomi ketibdi”, - deb o'ylaydi. “Vatanga nima berding?” desangiz, u: “Vatanim menga nima berdi?”, - deydi o'qrayib. Chunki u tug'ilgani, yashayotgani borligi uchun hamma unga nimadir berishi kerak. U esa hech kimga hech narsa bermasligi kerak. U sizga “foydalansa bo'ladigan yo bo'lmaydigan narsa”, - deb qaraydi. Bizlarni bu ko'ygga tushishdan Xudoning o'zi asrasin.

Savollar:

1. Sizning fikringizcha ushbu maqolada muallif qanday muammoni ko'tarib chiqqan?
2. Maqolada muammoni tasdiqlovchi qanday dalillar mavjud?
3. Vaziyatdagi beparvolik, loqaydlik tufayli vujudga kelgan salbiy illatlarni ajratib oling hamda ushbu muammoning kelib chiqish sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Muallif o'z maqolasida muammoni oldini oldish yo'llarini qanday bayon etgan?
5. Sizning fikringizcha ushbu muammoni qanday yechish mumkin?

(Trenerlar diqqatiga! Tinglovchilarga tushuntiring agar ular o'z faoliyatida keystopshiriqlardan foydalansalar va uni individual, kichik guruhlarda yoki jamoaviy tarzda yechsalar, unda savolli keyslardan foydalanilmaydi).

AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

Keysni yechish bo'yicha individual ish yo'riqnomasi

1. Avvalo, keys bilan tanishing. “Ma'naviy taxdidlar va ularga qarshi g'oyaviy kurashish” haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang. Sizning fikringizcha, muallif qanday muammoni o'z maqolasida ko'targan. (Yordam: keys mavzusiga e'tibor bering).
2. Muammoni tasdiqlovchi dalillarni ko'rsating.
3. Ma'naviyatimizni izdan chiqarishga qaratilgan taxdidlarni maqoladan ajratib oling. Ularni sanab bering.
4. Vaziyatdagi beparvolik, loqaydlik tufayli vujudga kelgan salbiy illatlarni ajratib oling va muammoning kelib chiqish sabablarini ko'rsating.
5. Maqoladan muammoni oldini oldish yo'llarini ko'rsatib bering.
6. Xalqimizga xos bo'lgan qanday insoniy fazilatlarni muammoni yechishda qo'llash mumkin.
7. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash zarurati ortib borishi sabablarini, uning millat, mamlakat va umuminsoniyat oldida turgan ulkan vazifalar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib bering.
8. Guruhlarda keysni yechish bo'yicha yo'riqnoma
9. Individual yechilgan keys vaziyatlar bilan tanishib chiqing.
10. Guruh sardorini tanlang.

Vatman qog'ozlarda quyidagi jadvalni chizing

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan yechim	Guruh yechimi

Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang.

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'yekti aniqlangan maks. 6 b	Muammoli va-ziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakat-lari aniq ko'rsa-tilgan maks. 10 b	Jami maks.20 b

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar ro'yxati	Guruh faoli maks. 1 b	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi maks.4 b	Javoblar to'liq va aniq berildi maks.5 b	Jami maks.10 b
1.				
2.				
3.				

8-10 ball – a'lo

6- 8 ball – yaxshi

4- 6 ball – qoniqarli

0 -4 ball – qoniqarsiz

O'quv – uslubiy hujjatlar

Jamiyatimiz taraqqiyotiga rahna solayotgan salbiy illatlar

Egotsentrizm - xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi

Xudbinlik – o'z shaxsiy manfaatini jamiyat va atrofdagi kishilar, jamoatchilik manfaatlaridan ustun qo'yish bo'lib, salbiy xususiyatida qoralanib kelingan. Jamiyat rivojining hayot kechirishi iqtisodiy jihatdan o'ir bo'lgan shartlari irodasiz, faol bo'lmagan, o'z kuchiga va boshqalarga ishonmagan kishilarda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Sharqona madaniyat xudbinlikka zid ravishda ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yib kelgan. Hozirgi davrda ham boylikka ruju qo'ygan, o'zini har narsadan ustun qo'yuvchilar uchrab turadi. Xudbinlik insonda boshqa salbiy sifatlarni ham keltirib chiqaradi. Mafkuraviy kurash keskinlashgan, yangi jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda xudbinlik katta zarar keltiradi

Loqaydlik – atrofida kechayotgan jarayonlarga, jinoyatlarga befarqlik, ko'rib ko'rma-ganga olish, o'zini olib qochish. Loqaydlik o'ziga, boshqalarga ishonmaslikdan, qo'rqqoqlikdan, o'zining tinchini o'ylashdan kelib chiqadi. Jamiyat muammolaridan o'zini chetga olish, jamiyat va kelajak oldida mas'uliyatdan bosh tortish o'ta salbiy sifat deb baholanadi

Boshqalarni mensimaslik – o‘zidagi ayrim sifatlarni mutlaqlashtirib, boshqalardan o‘zini yuqori qo‘yish, boshqalarni hurmat qilmaslik, o‘zining iqtisodiy, siyosiy va boshqa mavqeiga asoslanib, ayrim kishilarning ongi tor iste‘molchilik yo‘nalishida shakllanishidan kelib chiqadi. O‘zgalarga, o‘zidan mavqei pastroq bo‘lgan kishilarga, kasblarga, guruhlarga past nazar bilan qarab, o‘zini jamiyatning elitasi sifatida boshqalardan ajratish demokratik munosabatlar rivojlanishiga xalaqit beradi, notengsizlikni kuchaytirishga olib boruvchi faoliyatga oziq beradi

O‘quv mashg‘uloti ta’lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni: ...</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</i>	
<i>Ma‘ruza rejasi o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O‘quvmashg‘uloti maqsadi:</i>	
<i>Pedagogic vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<i>Ta’lim usullari</i>	
<i>Ta’lim shakli</i>	
<i>Ta’lim vositalari</i>	
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	
<i>Qaytar aloqa usul va vositalari</i>	

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>ta'lim beruvchi</i>	<i>ta'lim oluvchilar</i>
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)		
2-bosqich. Asosiy (daq.)		
3-bosqich. Yakuniy (daq.)		

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 1997
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent "Sharq" 1997
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.Sharq 1997 y.
4. Б.Л. Фарберман. Передовые педагогические технологии. Ташкент. Фан. 2000 й.
5. Усова А.В., А.А. Бобров. Формирование учащихся учебных умений. М. Знание.
6. Goziev E. Tafakkur psixologiyasi. T. O'qituvchi. 1990 y.
7. Фарберман Б.Л. Составление педагогических тестов. Т. ТАДИ, 1992 й.
8. Фарберман Б.Л. Методика разработки и применение педагогических тестов. Т. РОЪМЦ. 1995 й.
9. Усмонова М.Н. Педагогические тестирование: история развития и современное состояние. Т. Адолат. 1995 й.
10. Педагогическая технология как проявление ненасильственного подхода в воспитании. (материалы) третьего международной конференция «Педагогика ненасилия в деятельности породненных школу». М. 1992, 1-с. 63-65.
11. Педагогическая технология как элемент педагогического мастерства (Современные проблемы воспитательной работу школу и подготовка учителя - воспитателя). Барнаул. 1992 й. С. 95-96.
12. Студенты и учителя о технологии педагогического воздействия. (Педагогика М. - 1991). № 11-12 С. 54-58.
13. Новые технологии в воспитательного процесса. М. 1993. 112 с.
14. Saidahmedova A.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Xalq ta'limi. 1999 y. № 1 97-102 bet.
15. Чошанова М.А. Дидактическое конструирование гибкой технологик обучения. Педагогика. 1997 . № 2. 21-29 бет.
16. Boshlang'ich ta'lim jurnali. Barcha sonlari.

